



OTA VA O'G'IL MUNOSABATLARI: OTANING OILADAGI O'RNI

Ro'ziyeva Dilyayra Nurmurodovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

Ichki Ishlar Vazirligi Buxoro akademik litseyi

“Tillarni o'rganish” kafedrası ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola oila ichidagi ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. Shuning bilan birga, yoshlarni axloqiy, diniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash, o'zaro hurmat, xushmuomala va barqaror munosabatlar o'rnatish jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: oilaviy barqarorlik, oila, jamiyat, ota, farzand, tarbiya, oila instituti, yosh avlod, poydevor.

Oila – har bir jamiyatning poydevori va jamiyatning barqarorligi oilaning mustahkamligiga bevosita bog'liqdir. Oilaning hayotdagi o'rnı juda katta, chunki oilaviy qadriyatlar va me'yorlar jamiyatning axloqiy va ijtimoiy asoslarini tashkil etadi. O'zbekistonda oila muqaddas dargoh sifatida qadrlanadi va nikoh – buzilmas rishta sifatida qaraladi. O'zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan bo'lib, 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega” deb belgilangan. Ushbu norma oila masalasiga davlatning yuksak e'tiborini ko'rsatadi va oilaning jamiyatdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Xalqimiz yangi oila barpo bo'lar ekan, uni ikki yoshga, yani yangi er-xotinlarga tashlab q'ymaydi. Yangi oilaga ota – onalar, qarindoshlar, mahalla, joylardagi xotin-kizlar qo'mitalari, “Oila” ilmiy-amaliy markazi, shuningdek mutasaddi tashkilotlar ham etibor qaratadi. Ya'ni bizning davlatimizda oila masalasiga davlat siyosati darajasida qaralib



kelinmoqda. Bundan asosiy maqsad jamiyat taraqqiyotida manaviy barkamol va jismoniy sogʻlom avlodni tarbiyalashda oilaning oʻrni muhim ekanligini hisobga olib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy ananalarni avaylab asrash, ularni umumbashariy qadriyatlar bilan uygʻunlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yoʻli bilan oilalarning mustakamligini taminlash, oila azolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy oʻrganishni va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishni muvofiqlashtirishdan iborat.

Gʻarb mamlakatlarida boʻlayotgan nohushliklarga sabab, shu mamlakatning manaviy tanazzulga uchragani, milliy qadriyatlariga etiborsizliklari, eng achinarlisi, oilaga munosabatning iznidan chiqqanidir.

Eng avalo, oilada sogʻolom manaviy muhit, oila azolarida oʻzaro hurmat-ehtirom ruhini yaratish, yuksak axloqiy va manaviy qadriyatlarimizni saqlab qolish, yoshlarimiz ongiga sogʻolom turmush tarzini singdirish asosiy vazifamiz boʻlib qolishi lozim.

Birini bersang otangga,

Mingni olasan bolangdan.

Har bir oilada ota va oʻgʻil oʻrtasidagi munosabatlar doimo barchani oʻylashga, mushohada qilishga undaydigan masalalardan biridir. Bu rishta oʻta nozik, hamda oʻz navbatida oʻta mas uliyatli boʻlganidan Qurʻoni karimda bir necha oyatlar, qissalar va goʻzal nasihatlar ila chiroyli taʼlim berilgan. Bundan murod — ota va bolalar bir-birlarining haqlariga xiyonat qilmasliklar va haddilarini buzib oʻtmasliklar, kim-kimga qanday munosabatda boʻlishlarini bilib olsinlar degan undash bor.

Rasuli akram (s.a.v.)dan rivoyat qilindi: Paygʻambar alayhissalom aytdilar: “Uch toifa kishining duosi mustajob boʻlur:

1. Mazlumning duosi.
2. Musofirning duosi.
3. Otaning farzandiga qilgan duosi”. (Imom Buxoriy rivoyatlari).



Oila ichidagi ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, Islomda alohida o'rin tutadi. Qur'onda va hadislar orqali ota va bolalar o'rtasidagi hurmat va o'zaro mehr-muhabbatni mustahkamlashga chaqirgan ko'plab misollar mavjud. Luqmoni Hakimning farzandiga berilgan nasihatlar va Ismoil alayhissalomning ota-ona va Allohga bo'lgan itoati, ularning barchasi oilada ota va o'g'il o'rtasidagi sog'lom munosabatlar o'rnatishning ahamiyatini ko'rsatadi. Islom tarixida hamda bugungi kunda ko'plab tarbiyaviy kitoblarda ibrat olish uchun, Luqmoni Hakim eng yaxshi nasihatgo'y va solih ota sifatida barcha otalarga o'rnak bo'lishga arzigulik insondirlar.

U kishining va'dasida sadoqatli bo'lganlari va Allohning rizoligiga qanday erishganlari esa quydagi oyatda zikr qilingan: "Bas, qachonki u (otasi) bilan birga yuradigan bo'lgach, (Ibrohim): Ey o'g'ilcham, men tushimda seni (qurbonlik uchun) so'yayotganimni ko'rmoqdaman. Endi sen o'zing nima ra'y (fikir) qilishingni bir (o'ylab) ko'rgin", degan edi, u aytdi: "Ey, otajon, (senga tushingda Alloh tomonidan) buyurilgan ishni qilgin. Ishaalloh, meni sabr qiluvchilardan topursan". Bas, qachonki, ikkisi ham (Allohning amriga) bo'yin sunib, (Ismoilni qurbonlikka) peshonasi bilan (erga) yotqizgan ediki, biz unga nido qildik: "Ey, Ibrohim! Darhaqiqat, sen tushni tasdiq etding. Albatta biz ezgu ish qiluvchilarni mana shunday mukofotlaymiz". Albatta bu (qurbonlikka buyurishim) ayni sinovdir. "Biz Ismoilning o'rniga katta bir qo'chqor so'yishni evaz qilib berdik." (Soffat surasi, 102-107-oyatlar)

Ismoil alayhissalom hayotlariga so'ngi nuqta qo'yilishini aniq bilib tursalar ham, bu ish Allohning buyrug'i deya, otalariga qarshi biror so'z aytmadilar. Nega? Qaysi gunohim uchun? deb ham so'rab o'tirmadilar. Chunki u kishi otalari behikmat bir ish qilmasliklarini bilar, otalarini Alloh oldida hijolatga qo'yishni sira istamasdilar. Garchi ziyonlariga bo'lsa ham Allohga va uning payg'ambariga haqiqiy itoat na'munasini amallari bilan isbot qildilar. Yana boshqa Qur'on qissasida u kishi otalariga Ka'bani barpo qilishda yordam berganlari, yonlarida birga turib Allohga duo qilganlari aytib o'tiladi. Ismoil alayhissalom



va'dasiga sadoqatli bo'lishni qasd qilgan va Robbisi huzurida rozi bo'linganlarning darajasini istaydigan o'g'illar uchun eng yaxshi na'munadirlar.

Dinimiz ta'limotlaridan ma'lumki, farzand ota onaga hamisha itoatkor bo'lmog'i darkor. Ammo ular yomon yo'lga chorlasalar, Allohga osiy bo'ladigan amallarga buyursalar, yana bir payg'ambar va uning otasi haqidagi qissa bu masalani muolaja qilib beradi.

Ibrohim alayhissalom kichik yoshdagi bola bo'lishlariga qaramay, qavmlari va otalari qilayotgan ishlar – but sanamlarga sig'inishdan bezor edilar. To u kishiga risolat kelmagunicha haq yo'lni izlayverdilar. Nihoyat Alloh payg'ambarlikka tanlab olganidan so'ng, qavmlari va otalari ibodat qilayotgan olihalardan bezor ekanliklarini aytib, o'z yo'llaridan ketdilar. Shunday bo'lsa ham, otalariga qarshi dag'al so'z aytmadilar. Aksincha bir muddatgacha istig'for aytib yurdilar. Keyin Alloh taolo buni man qilgan: "Na payg'ambar va na mo'minlar mushriklar uchun, garchi ular qarindoshlari bo'lsa ham ularning do'zax ekanliklari ma'lum bo'lgandan keyin istig'or (gunohlarini kechirishini) so'rashlari joiz emas. Ibrohimning (o'z) otasi uchun istig'for so'rashi faqat unga qilgan va 'dasi tufayli edi. Allohning dushmani ekanligini bilganidan keyin undan (otasidan) voz kechdi. Albatta, Ibrohim oqko'ngil va halimdir". (Tavba surasi, 113,114-oyatlar)

Oilada ota va o'g'il munosabatlarini chiroyli bo'lishi uchun farzandlarga pand nasihat qilish joizdir. Unga din va dunyo odoblaridan ta'lim berish, Ota-onaga so'zsiz itoat qilish, Ma'siyat o'rinlarda ularga chiroyli tarzda tushuntirish, Va'dasiga sodiqlik Allohga mahbub amallardan biri ekanligi, Kishi ahli va qarindoshlarini yaxshi ishlarga targ'ib qilish, Ota-onasi musulmon bo'lsa haqlariga duo va istig'for aytish judda ham mashhur va mahbub amallardandir. Alloh taolo barchalarimizni oilalarimizda islomiy muhit ila yashashlikka tavfiq hidoyat bersin. O'zbekistonda oila institutining mustahkamlanishi va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash maqsadida davlat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlar, shu jumladan, yoshlar uchun oilaviy tarbiya, oilaviy institutlarning huquqiy himoyasi va oila a'zolarining farovonligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Shunday



qilib, oilaning roli jamiyatda nafaqat axloqiy, balki iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham yuksak ahamiyat kasb etadi.

Oila – jamiyatning mustahkam poydevori bo‘lib, uning barqarorligi va farovonligi jamiyatning umumiy barqarorligi va rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Oilaning yuksak axloqiy qadriyatlar asosida shakllanishi, o‘zaro hurmat va mehr-oqibatga asoslangan munosabatlarning rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda oila institutining mustahkamlanishi va rivojlanishi uchun davlat siyosati hamda milliy qadriyatlar asosida amalga oshirilayotgan ishlar jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-491 b.
2. “O‘zbek xalq maqollari” Toshkent-2005
3. Ярашов, М. Д., & Хамдамова, Х. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РЕЧЬЮ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 138-143.
4. Yunus, Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.
5. Yunus, Y. S. (2022). MODERN APPROACH TO TEACHING ELEMENTS OF ALGEBRA IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS. *Scientific Impulse*, 1(5), 774-780.
6. Yunus, Y. S., & Hikmatovna, N. M. (2022). WAYS OF EFFECTIVE USE OF EDUCATIONAL METHODS AND TOOLS. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 148-152.



7. Jobir o'g'li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMUNINING TAVSIFI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 144-147.
8. Jobirovich, Y. M. (2023). BUILDING COMPETENCES IN ORGANIZING PRIMARY EDUCATION CONTENT USING DIGITAL TECHNOLOGIES. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 763-766.
9. Jobirovich, Y. M. (2023). EXPRESSION OF DIDACTIC GAMES IN PRIMARY EDUCATION THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 93-97.